

## X. DEMOGRAFIYA

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 4 031,3 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 83,6 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paydi.

### Doimiy aholi soni, ming kishi

(2022- yil 1- yanvar holatiga)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>4 031,3</b>	<b>2 028,5</b>	<b>2 002,8</b>	<b>1 483,2</b>	<b>2 548,1</b>
Samarqand sh.	561,9	272,2	289,7	561,9	x
Kattaqo'rg'on sh.	91,9	45,9	46,0	91,9	x
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	165,1	83,4	81,7	63,8	101,3
Bulung'ur	193,4	98,6	94,8	42,8	150,6
Jomboy	180,5	91,1	89,4	39,8	140,7
Ishtixon	264,4	133,0	131,4	71,4	193,0
Kattaqo'rg'on	282,3	143,3	139,0	53,4	228,9
Qo'shrabot	136,3	69,5	66,8	12,6	123,7
Payariq	260,3	134,7	125,6	74,4	185,9
Pastdarg'om	367,3	184,6	182,7	94,7	272,6
Paxtachi	147,9	73,5	74,4	28,7	119,2
Samarqand	261,5	132,1	129,4	16,1	245,4
Narpay	219,2	111,4	107,7	65,1	154,1
Nurobod	156,3	78,7	77,6	17,7	138,6
Toyloq	210,5	106,2	104,3	25,7	184,8
Urgut	532,5	270,2	262,3	223,1	309,4

## Aholining tabiiy harakati


(yanvar-dekabr oylarida)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2020- y.	2021- y. <sup>1)</sup>	o'sish, kamayish	2020- y.	2021- y. <sup>1)</sup>
Tug'ilganlar	101 414	110 437	9 023	25,9	27,7
O'lim	18 404	18 808	404	4,7	4,7
Nikohlar	33 385	36 228	2 843	8,5	9,1
Ajralishlar	2 961	4 141	1 180	0,8	1,0

**Tug'ilish.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 110 437 bola tug'ilgan va 2020- yilning shu davriga (101 414 bola tug'ilgan) nisbatan 9 023 taga ko'paydi, tug'ilish koeffitsienti esa 27,7 promilleni tashkil qildi (2020- yil yanvar-dekabrida 25,9 promille).

Tug'ilish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Qo'shrabot (29,0 dan 32,8 promillega), Ishtixon (27,7 dan 30,7 promillega), Bulung'ur (25,0 dan 27,6 promillega), Toyloq (27,7 dan 30,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti




**Vafot etish darajasi.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 18 808 kishini tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga (18 404 kishi) nisbatan

404 taga ko'paydi. O'lim koeffitsienti esa 4,7 promilleni tashkil qildi (2020- yilning shu davrida 4,7 promille).

### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2021- yil yanvar-dekabr)




Vafot etganlar sonining ko'payishi Samarqand shahrida (5,9 dan 6,4 promillega), Qo'shrabot (4,5 dan 4,9 promillega), Narpay (4,3 dan 4,7 promillega) va Bulung'ur (4,1 dan 4,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro'yxatga olingan jami vafot etganlar 62,7 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 6,6 foizi - o'sma kasalliklari, 4,8 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 4,2 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 8,1 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,1 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 12,5 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

### Vafot etganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi, % da

(2021- yil yanvar-dekabr)




**Nikoh.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 36 228 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 9,1 promilleni tashkil etdi.

Nikoh tuzish koeffitsientining sezilarli darajada ko'payishi Kattaqo'rg'on shahri (7,0 dan 9,2 promillega), Kattaqo'rg'on (7,8 dan 9,6 promillega), Samarqand (7,3 dan

8,7 promillega), Samarqand shahri (6,6 dan 7,8 promillega), tuman va shaharlarida kuzatildi.


### Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti (2021- yil yanvar-dekabr)




**Nikohdan ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlarida 4 141 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada ko'payish Jomboy (0,7 dan 1,2 promillega) va Toyloq (0,6 dan 1,1 promillega), Samarqand shahri (1,3 dan 1,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2021- yil yanvar-dekabr)



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 591 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 17 643 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus -8 052 kishi (2020- yilning shu davrida minus -12 643 kishi)ga teng bo'ldi.



## Aholining migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

(yanvar-dekabr oylarida)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>5 142</b>	<b>9 591</b>	<b>17 785</b>	<b>17 643</b>	<b>-12 643</b>	<b>-8 052</b>
Samarqand sh.	880	4 918	2 688	2 695	-2 364	2 223
Kattaqo'rg'on sh.	280	571	616	773	-553	-202
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	99	219	598	722	-557	-503
Bulung'ur	433	433	1 097	1 118	-1 041	-685
Jomboy	341	398	483	529	-417	-131
Ishtixon	279	521	1 417	1 319	-1 380	-798
Kattaqo'rg'on	441	452	2 121	1 369	-1 979	-917
Qo'shrabot	164	234	989	1 201	-950	-967
Payariq	245	195	1 498	1 564	-1 438	-1 369
Pastdarg'om	213	248	883	990	-828	-742
Paxtachi	351	13	1 071	1 256	-900	-1 243
Samarqand	555	533	661	871	-472	-338
Narpay	393	225	1 256	882	-1 148	-657
Nurobod	19	238	736	606	-731	-368
Toyloq	303	368	372	384	-318	-16
Urgut	146	25	1 299	1 364	-1 272	-1 339